O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 130.122:502.1

Elyor ATAQULOV,
Tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
E-mail: ataqulovelyor@gmail.com

PhD S.Yaxyayeva taqrizi asosida

EKOTSID VA EKOTERRORIZMNING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada ekotsid va ekoterrorizmning falsafiy mohiyati yoritilgan. Ekotsidning insoniyat va tabiat olamiga nisbatan dahshatli oqibatlari bayon etilgan. Insoniyatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishga tabiatga mehrli, oqilona, ilmiy, andishali munosabatga da’vat etishi haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ekotsid, ekoterrorizm, tabiatga yetkazilgan kuchli jarohatlar.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ЭКОЦИДА И ЭКОТЕРРОРИЗМА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье описывается философская сущность экоцида и экотерроризма. Описываются ужасные последствия экоцида для человечества и природы. Статья призывает к любящему, рациональному, научному и вдумчивому отношению к природе, к экологическим компонентам, чтобы пробудить человечество от сна безразличия.

Ключевые слова: Экоцид, экотерроризм, серьезный ущерб природе.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF ECO-CIDE AND ECO-TERRORISM: A COMPARATIVE ANALYSIS

Annotation

This article describes the philosophical essence of ecocide and ecoterrorism. It describes the dire consequences of ecocide for humanity and nature. It calls for a loving, rational, scientific, and thoughtful approach to nature and its ecological components, in order to awaken humanity from its slumber of indifference.

Keywords: Ecocide, ecoterrorism, serious damage to nature.

Kirish. Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida hali ham harbiy nizolar, harbiy mojarolar, qurolli to‘qnashuvlar, urushlar olovi butunlay o‘chmagan.

Insoniyat urushning dahshatli oqibatlarining guvohi bo‘lgan bo‘lsa ham, astoydil o‘zi yashayotgan bitta-bitta sayyoradan uni butunlay yo‘q qila olmayabdi. Davrlar, vaqtlar o‘zgarishi bilan harbiy to‘qnashuvlar paytidagi qurollar ham sifat jihatdan o‘zgarib ketdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tarixiylik va mantiqiylik, empirik, taqqoslash, kuzatuv va tahlil, analiz va sintez, dialektik va sinergetik ilmiy bilish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. “Ekotsid” tushunchasi ilk bor 1970 yillarda AQSH armiyasi Vyetnam urushida “Agent Orange” (defoliant-barq uruvchi kimyoviy modda) qo‘llanilganidan keyin paydo bo‘ldi. Bu modda millionlab gektar o‘rmon va ekinlarni yo‘q qilib, katta ekologik halokatga sabab bo‘ldi.

Ekotsid urush harakatlari natijasida ham, tinchlik davrdagi inson faoliyati oqibatida sodir bo‘lishi mumkin.

Ekotsid – bu tabiatga, atrof-muhitga juda katta zarar va og‘ir zarar yetkazish bilan bog‘liq harakatlar, qasddan yoki faoliyatdir. Boshqacha iboralar bilan aytganda, ekotsid – insonlar yoki beparvolik oqibatida vayron qilishni anglatuvchi tushuncha, yana bir ibora orqali ifodalasak, bu tabiat va ekotizimlarga tiklab bo‘lmas darajada zarar yetkazishdir, tashkilotlar tomonidan tabiatni shunday darajada vayron qilishki, natijada: O‘simlik va hayvonot (biota) dunyosiga katta zarar yetadi; Suv, havo va tuproq ifloslanadi; Inson salomatligi xavf ostida qoladi; Butun ekotizim funksiyasi izdan chiqadi; Yadroviy sinovlar oqibatida tabiatga zarar yetkazish; Orol dengizining qurishiga sabab bo‘lgan ekologik xatolar.

Zamonaviy olimlar hamda xalqaro tashkilotlar haqli ravishda ekotsidni insoniyatga qarshi og‘ir jinoyatlar qatoriga kiritish kerak, deb hisoblashadi, bu fikrga qo‘shilamiz.

Xalqaro miqyosda ekotsidni genotsid va harbiy jinoyatlar qatorida Xalqaro jinoyat sudi (ICC)da alohida jinoyat sifatida tan olish bo‘yicha faol harakatlar olib borilmoqda. Ekspertlar guruhi ekotsidga quyidagicha ta’rif berishgan, “ekotsid – bu atrof-muhitga jiddiy hamda keng ko‘lamli yoki uzoq muddatli zarar yetkazish ehtimoli yuqori ekanligini bila turib sodir etilgan noqonuniy yoki o‘zboshimchalik bilan qilingan harakatlar”dir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 202-moddasi aynan “Ekotsid” deb nomlanadi. Unga ko‘ra, o‘simlik yoki hayvonot dunyosini ommaviy qirib tashlash, atmosferani, yer yoki suv resurslarini zaharlash, shuningdek, ekologik ofatni keltirib chiqargan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan boshqa harakatlarni sodir etish og‘ir jinoyat hisoblanadi va uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

“Ekotsid” va “ekoterrorizm” bir-biriga bog‘liq tushunchalar bo‘lsalar ham, ular orasida juda muhim farqlar mavjud. Eng oldin bu ikki ijtimoiy ekologiyaning ikki kategoriyasining tasnifini qiyoslasak:

Ekotsid	Ekoterrorizm

Ekotsid – atrof-muhitga juda katta va haddan ortiq keng ko‘lamli zarar yetkazishni anglatadi. Ekotsid – urushlar oqibatining ulkan zararidir; Ekotsid – sanoat faoliyati, tabiiy resurslarni nazoratsiz ekspluatatsiya qilish, ekologik iborada aytganimizda, tabiiy resurslarni limitirik meyorlari, ekologik qiymatlarini inobatga olmay ishlatishning natijasi-oqibatidir; Ekotsid – bu atrof-muhitga jiddiy hamda keng ko‘lamli yoki uzoq muddatli zarar yetkazish ehtimoli yuqori ekanligini bila turib sodir etilgan noqonuniy yoki o‘zboshimchalik bilan qilingan harakatlardir; Ekotsid – bu tizimli ravishda, ko‘pincha pul yoki harbiy ustuyelik uchun tabiatni keng ko‘lamda qirib, yo‘q qilib yuborishdir.	Ekoterrorizm – bu tabiiy atrof-muhitga qasddan zarar yetkazish yoki ekologik xavf tug‘dirish orqali aholini, davlat yoxud tashkilotlarga jiddiy bosim o‘tkazishga qaratilgan terrorchilik harakatidir. Ekoterrorizm – tabiat va uning barcha komponentlaridan qurol sifatida foydalanib, qo‘rquv yoki zarar keltirishga qaratilgan harakatdir. Diqqat qilib bu ikki tasnifni solishtirsak, har bir tasnif ekoterroroizmning bir qirrasini yoritib bermoqda. Ikkinchi tasnifdagi o‘ziga xoslik shundan iboratki, bunda har bir tabiat ne’mati – suv, havo, tabiiy qazilmalar, ekosistemalar – qisqasi tabiatning komponentlaridan dushmanni yengish uchun qurol sifatida foydalanganlikni anglaymiz. Ekologik terrorizm yoxud ekoterrorizm – siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa maqsadlarga erishish uchun atrof-muhitga qasddan zarar yetkazish yoki shunday tahdid qilish orqali jamiyatda qo‘rquv va beqarorlik, sarosimaliklarni keltirib chiqarishdir.
Belgilar	Belgilar
	Ekologik halokatga keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan obyektlarga hujum qilish; O‘rmonlarga qasddan o‘t qo‘yish; Zaharli moddalar yoki radioaktiv moddalarni tarqatish.
Ekotsidning maqsadi	Ekoterrorizmning maqsadi
Terroristik maqsad bo‘lishi shart emas;	Terroristik yoki siyosiy maqsad bo‘ladi. Asosiy belgisi: qo‘rqitish va bosim o‘tkazish maqsadi mavjud bo‘ladi.
Xalqaro huquq darajasida	Xalqaro huquq darajasida
Xalqaro huquq darajasida ko‘plab davlatlarning, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kondeksining 125 moddasi qonunchiligida tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sifatida baholangan.	Ekoterrorizm Xalqaro va milliy qonunchilikda terrorizmning bir shakli yoxud diversiya sifatida ko‘riladi va tegishli jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.
	“Ekoterrorizm” atamasining aniq huquqiy tasnifi barcha davlatlarda bir xil emas. Ba’zi paytlar u tabiat, atrof-muhit ne’matlariga zarar yetkazish orqali terrorchilik qilishni anglatsa, ba’zan ekologik g‘oyalarni himoya qilish bahonasida mulkka qarshi zo‘ravonlik harakatlarini ham shu tushuncha orqali atashadi. Ammo umumiy jihat –ekologik zarar yoxud ekologik tahdidning qo‘rqitish va bosim o‘tkazish vositasi sifatida qo‘llanilishidir.

1961-1971-yillardagi Amerika-Vyetnam urushi. Mazkur urushda AQSH armiyasi Vyetnam o‘rmonlarida partizanlarni yashirish joylaridan mahrum qilish va ekinlarni yo‘q qilish uchun (ishlatilishi Jahon miqyosida ta’qiqlangan) dioksin moddasi saqlagan “Agent Orange”-millionlab litr kuchli defoliantlar va gerbitsidlarni ayamay sepgan. Natijada millionlab gektar tropik o‘rmonlar va mangra changalzorlari butunlay yo‘qotilib yuborilgan. Tuproq va suvlar zaharlangan. Yana bir tomondan zaharli moddalar Vyetnam tuproq va suvlari tarkibida saqlanib kelmoqda. Buning oqibati tufayli hanuzgacha Vyetnamda bolalarning og‘ir genetik nuqsonlar va kasalliklar bilan tug‘ilishiga sabab bo‘lmoqda. 1991-yilda Fors ko‘rfazidagi urush va neft halokati – qasddan amalga oshirilgan ekologik urush sanaladi. Quvaytni tark etayotgan Iroq harbiy kuchlari Saddam Xusayn buyrug‘iga bineoat 700 dan ortiq neft quduqlariga o‘t qo‘ygan. Atmosferaga millionlab tonna zaharli tutunlar chiqqan, neft ko‘llari paydo bo‘lgan va ekosistemasi chidab bo‘lmas darajada zarar ko‘rgan.

Amazonka o‘rmonlarining ommaviy kesilishi 1970-yillardan boshlandi, ungacha Amazonka o‘rmonlari deyarli daxlsiz bo‘lgan. Amazonka – “yer yuzining o‘pkasi” sanaladi. 1970-yillardan boshlab hukumat o‘rmon ichidan minglab kilometrlik yo‘llar qurishni boshladi. 1980-yillarda esa yirik korporatsiyalar o‘rmonlarni yoppasiga kuydira boshladi. Soya yetishtirish sanoat darajasiga chiqdi. 1995-yil atigi shu yilning o‘zida 29 059 kvadrat kilometr o‘rmon (Bu deyarli Belgiya davlati hududiga teng – hududli o‘rmon) yo‘q qilindi.

№	Amazonka o‘rmonlari	O‘rmonlarni yo‘q qilingan maydon ko‘lami
1	1995-yil	29 059 km2
2	2004-yil	27 772 km2
3	Oxirgi 50 yil ichida	Amazonka o‘rmonlarining 17-20% butunlay yo‘qotildi.

Ekolog-olimlarning ogohlantirishicha, agar Amazonka o‘rmonlarining yo‘qolish ko‘rsatgichi 20-25%ga yetsa, o‘rmon o‘z-o‘zini tiklash xususiyatini yo‘qotadi va o‘rmon asta-sekin quruq savannaga – dashtga aylanib qoladi. Ilmiy iboralar bilan aytganimizda, bioekologiyadagi 70% qonuni buzilganidir. [4]

Ko‘plab ekologlar bunday hodisalarni “zamonaviy tinchlik davrdagi ekotsid” deb ataladi.

Ekoterrorizmga misollar. Suv manbalarini zaharlashga urinish- aholi o‘rtasida vahima chiqarish yoki davlatga bosim o‘tkazish maqsadida ichimlik suvi tizimlarini biologik yoxud

kimyoviy moddalar qo‘shish orqali ifloslantirish; Suv omborlari yoki gidrotexnik inshootlarni vayron qilishga qaratilgan harakatlar; Kiber-ekoterrorizm xavfi: Kimyoviy zavodlar, suv tozalash inshootlari yoki atom elektrostantsiyalarining boshqaruv tizimlariga xakerlik hujumlari uyushtirish orqali ekologik halokat keltirib chiqarishga olib keladigan axloqsiz harakatlar.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ba’zi ekstremal ekologik tashkilotlar atrof-muhitga zarar yetkazayotgan korxonalarga qarshi iqtisodiy zarar keltirish taktikasini – eko-diversiya yoki ekotaj qo‘llagan.

“Yerni ozod qilish fronti – (Earth Liberation Front –ELF) ushbu guruh. Bu guruh 1990- va 2000-yillarda AQSH va Yevropada o‘nlab yirik o‘t qo‘yishlarni amalga oshirgan. 1998-yilda Kolorado shtatidagi Veyl tog‘-chang‘i kurortining yoqib yuborilishidir. Guruh buni o‘rmonlarni saqlab qolish va yovvoyi tabiatni himoya qilish bilan izohlagan. Zarar miqdori 12 million dollardan oshib ketgan.

“Hayvonlarni ozod qilish fronti” (Animal LiberationFront-ALF) Bu guruh a’zolari tibbiy va kosmetika laboratoriyalariga, mo‘ynachilik fabrikalariga hujum qilib, hayvonlarni qo‘yib yuborishgan, uskunalarni vayron qilishgan va binolarga o‘t qo‘yishgan. Sanoat vakillari va huquq tartibot organlari buni terrorchilik harakati deb baholashgan.

Daraxtlarga mix qoqish. Radikal ekologlar o‘rmonlarning kesilishiga to‘sqinlik qilish uchun daraxt tanalariga uzun po‘lat yoxud keramika mixlarni qoqib chiqishgan. Bu zanjirli arralar – benzopila yoki yog‘ochni qayta ishlash zavodlaridagi uskunalarni ishdan chiqargan va ishchilarning hayotiga jiddiy xavf tug‘dirgan.

Ekologik falsafa sohasidagi mashhur olim Timoti Morton (1968 yil, Angliya. London) “Qorong‘u ekologiya” (Dark Ecology) tushunchasini ilgari surib, bu g‘oyani u 2016-yilda nashr etilgan Dark Ecology: For a Logic of Future Coexistence (“Qorong‘u ekologiya: kelajakda birga yashash mantig‘i uchun”) asarida keng yoritdi [3]. Timoti Mortonning “qorong‘u ekologiyasi” – insonning tabiat bilan uzviy bog‘liqligini, ekologik inqirozning og‘riqli tomonlarini tan olish va ular bilan yashashni o‘rgatuvchi falsafiy yondashuvdir. Uning asosiy g‘oyalarining mohiyati quyidagicha: Inson tabiatdan ajralgan mavjudot emas, balki uning bir qismi; Iqlim o‘zgarishi, ifloslanish va bioxilma-xillikning kamayishi kabi muammolar inson hayoti bilan chambarchas bog‘liq; Ekologik ong ba’zan qo‘rquv, g‘amginlik va noaniqlik hissini keltirib chiqaradi; bu holatni inkor qilish emas, qabul qilish lozim.Inson va barcha tirik hamda notirik tabiat ne’matlari – flora, fauna, mikroorganizm, ekotizimlar va h.k. o‘zaro bog‘liq holda mavjud bo‘ladi.

XX-asrning o‘rtalarida inson bilan tabiatning o‘zaro ta’sirining nihoyatda kengayib borishi tufayli dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida atrof-muhitning o‘z tabiiy sifatidan chetga chiqib ketishi tufayli ekologik inqirozlarga olib keldi. Natijada dunyo mamlakatlarining siyosatchilari, ishbilarmonlari, olimlar, iqtisodchilar va jurnalistlar orasida eng dolzarb mavzu sifatida muhokama etila boshlandi. Ekologik inqirozlar

Toza ichimlik suvi muammosi, havoning keskin dimiqishi, havo, tuproq va suvlarning ifloslanishi, cho‘llashuvlarning kuchayishi – bularning barcha-barchasi ekologik inqorozli muhitdan dalolat bera boshladi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish davridagi yangi nizolar. Quyosh, shamol, elektromobillar – qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish ham kutilmagan yangi ekologik ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, kamyob metallar uchun kurash, konchilik sanoatining tabiatni ifloslantirishi va h. Elektromobillar va batereyalar uchun zarur bo‘lgan litiy, kobalt, nikel va misni qazib olish joylarida misol uchun, Kongo Demokratik Respublikasi, Janubiy Amerikaning “litiy uchburchagi” da mahalliy aholi va yirik korporatsiyalar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar. Konchilik sanoatining atrof-muhitni ifloslantirishi va suv resurslarini quritib yuborishi mahalliy ekologik noroziliklarga sabab bo‘lmoqda.

Ekologik inqirozlarni faqat “tabiatni sevish” orqali hal qilib bo‘lmaydi. Demak, barcha tabiat borlig‘i qonun qoidalariga barcha davlatlarda yashovchi insonlarning ekologik bilimini oshirish, ongi va tafakkurini o‘zgartirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16 Farmoni, 2026-yil 25-mart “Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta’lim, ilm-fan va targ‘ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-110 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori [2] bugungi kun yoshlaridan uzviy ekologik bilim tizimini mukammal o‘rganib ularni amaliyotga qo‘llashni da’vat etmoqda. Shundagina yashil iqtisodiyotga erishamiz. Biosferani o‘zimiz uchun ham, kelajak avlod uchun ham asrab qola olamiz.

Xulosalar:

1. Ekoterrorizm – odatda qo‘rquv uyg‘otish yoxud siyosiy maqsadlarga erishish uchun tabiat va uning komponentlariga qasddan zarar yetkazilganda qo‘llaniladi.
2. Ekotsid – bu atrof-muhitga jiddiy hamda keng ko‘lamli yoki uzoq muddatli zarar yetkazish ehtimoli yuqori ekanligini bila turib sodir etilgan noqonuniy yoki o‘zboshimchalik bilan qilingan harakatlardir;
3. Har qanday ekologik zarar ekologik terrorizm hisoblanmaydi;
4. Har bir ekotsid ekoterrorizm hisoblanmaydi;
5. Ekotsid va ekoterrorizmning o‘xshashlik tomoni shundaki: A) obyekt ular uchun ekokomponent, ekotizim bo‘lib, zararlar ham aynan o‘shalarga qaratilgan bo‘ladi; B) ekotsid ham, ekoterrorizm ham nafaqat mahalliy, balki global miqyosda ekologik inqirozlarni keltirib chiqarish salohiyatiga ega; V) har ikkalasining oqibatidan – inson salomatligiga; turlar xilma-xilliligiga; iqtisodiyotga kattadan-katta zarar yetkazilgan bo‘ladi.
6. Har bir ekoterrorizm harakati ekotsidga olib kelishi mumkin;
7. Ekoterrorizm – odatda qo‘rquv uyg‘otish yoxud siyosiy maqsadlarga erishish uchun tabiat va uning komponentlariga qasddan zarar yetkazilganda qo‘llaniladi.
8. Jahondagi ko‘plab yirik ekologik tashkilotlar – Greenpeace yoki WWF yuqoridagi zo‘ravonlik va qo‘poruvchilik usullarini keskin qoralaydilar va o‘z kurashlarini faqat qonuniy, tinch namoyishlar hamda huquqiy yo‘llar bilan olib boradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16 Farmoni, 2026-yil 25-mart “Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta’lim, ilm-fan va targ‘ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-110 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori [2] bugungi kun yoshlaridan uzviy ekologik bilim tizimini mukammal o‘rganib, ularni amaliyotga qo‘llashni da’vat etmoqda. Shundagina yashil iqtisodiyotga erishamiz. Biosferani o‘zimiz uchun ham, kelajak avlod uchun ham asrab qola olamiz.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2022. 440 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta’lim, ilm-fan va targ‘ibotni jadallashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida (2026-yil 25-mart, PQ-110-son).
3. Timoti Mortonning eng mashhur asarlari: “Ecology Without Nature”, 2007; “The Ecological Though”, 2010; “Hyperobjects”, 2013; “Dark Ecology”, 2016. Bu asar “Qorong‘u ekologiya” deb ham yuritiladi.
4. Salomova H.Y. Ijtimoiy ekologiya asoslari. T.: “Fan va Texnologiy”, 2004.
5. Salomova H., Alimov N. Urush va ekologiya // Hayot va iqtisod. 1992. №11. 54–56-betlar.
6. Salomova H.Y. Ijtimoiy ekologiya. Buxoro: “Durdona”, 2026. 144 b.